

**INKLYUZIV TA'LIM MUAMMOLARI VA ULAR UCHUN MUQOBIL
YECHIMLAR SHARHI****Qozoqboyeva Xanifaxon Shavkatjon qizi**

Farg'ona viloyat dang'ara tumani 34-sonli umumta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

xanifaqozoqboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Bu moqola bugundi kunda ta'limning asosiy bo'lagi bo'lgan inklyuziv ta'limdagi yechilishi zarur bo'lgan muammlarni jahon standartlariga mosravishda yechimlarga yo'naltirish borasida olib boriladiga ishlar mazmunini ochib berishga qaratilgan. Bilasizmi, sifatli ta'lim har bir bolaga tegishli bo'lib, ular yaxshi akademik muhitdan yordam oladilar. Ushbu g'oyani optimallashtirish, uning inklyuziv sa'y-harakatlari va tenglikka sodiqligiga qaramay, bir qator jiddiy amalga oshirish qiyinchiliklariga duch kelmoqda. Bu muammlarni xal qilishda asosan ta'limni har bir bolaga moslashtirilishi, bolalarning intellektual rivojlanishi va ularning o'zlashtirish qobiliyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Bu maqola orqali biz ta'lim muammlarini har tomonlama o'rganish va ularni bolalarni intellektini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, tenglik, intellektual rivojlanish, mutaxassislarining hamkorligi, ijtimoiy-emotsional kompetentlik.

Abstract: This article aims to reveal the content of the work being carried out to address the problems that need to be solved in inclusive education, which is a major part of education today, in line with world standards. As you know, quality education belongs to every child, and they receive support from a good academic environment. Despite the optimization of this idea, its inclusive efforts and commitment to equality, it faces a number of serious implementation difficulties. In solving these problems, it is necessary to adapt education to each child, take into account the intellectual development of children and their learning abilities. Through this article, we will comprehensively study the problems of education and focus on developing the intellect of children.

Keywords: inclusive education, equality, intellectual development, cooperation of specialists, social and emotional competence.

Аннотация: Данная статья направлена на раскрытие содержания работы, проводимой для решения проблем, которые необходимо решить в инклюзивном образовании, являющемся важной частью современного образования, в соответствии с мировыми стандартами. Как известно, качественное образование принадлежит каждому ребенку, и он получает поддержку в хорошей академической среде. Несмотря на оптимизацию этой идеи, ее инклюзивные усилия и приверженность равенству, она сталкивается с рядом серьезных трудностей в реализации. При решении этих проблем необходимо адаптировать образование к каждому ребенку, учитывать интеллектуальное развитие детей и их учебные способности. В данной статье мы всесторонне изучим проблемы образования и сосредоточимся на развитии интеллекта детей.

Ключевые слова: инклюзивное образование, равенство, интеллектуальное развитие, сотрудничество специалистов, социально-эмоциональная компетентность.

Kirish: Inklyuziv ta'lim dasturi har bir o'quvchiga o'sish va muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshiroq imkoniyatlar yaratadigan o'quv muhitida ishtirok etish imkonini beradi. Inklyuziv dasturlarni ishlab chiqish qiyin, chunki ular uslubda sezilarli o'zgarishlarni talab qiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 1,3 milliard kishi jiddiy nogironlikka ega va butun dunyo bo'ylab aholining 16% ini tashkil etadi. UNICEF dunyo bo'ylab taxminan 240 million nogiron bola borligini xabar qildi. Ularning rivojlanishi

uchun inklyuziv dasturlar himoyasida asosiy ta'lim berish zarur. O'qituvchilar maktablarda muhim rol o'ynaydigan asosiy ustunlardan biri bo'lib, o'quvchilarga eng yaxshi ta'lim va ta'limni taqdim etadi. O'zbekistonda inklyuziv maktablar uchun o'qituvchilarni tayyorlashda bir qator to'siqlar mavjud. Umumiy o'qituvchilar maxsus ta'lim sohasida cheklangan bilim va ma'lumotga ega bo'lib, bu ko'pincha o'qituvchilar uchun stressli bo'lishi mumkin. Inklyuzivlik sohasida barcha o'quvchilar muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur resurslarga ega. O'qituvchilar tayyorlash dasturlarini ham yaxshilash zarur. Yangi Ta'lim Siyosati inklyuziv ta'limga oid. muntazam dasturlarini ham ko'rib chiqishga e'tibor qaratdi. Yaqin yillar mobaynida inklyuzif ta'lim umumiy o'rta ta'limning ajralmas bo'g'iniga aylanib kelmoqda, shunga qaramay bugungi kunda ham muamolarga dujkelamiz. Bu xolat intellektual rivojlanishida muamosi bor o'quvchilarning akademik bilim olishiga salbiy tassir ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab bu muamolarga ijobiy yechimlar topish ustida juda ko'plab olimlar ish olib bormoqdalar. Bilamizki, bizning ananaviy maktablarimizda asosan bolaning bilim olishiga, o'zlashtirish qobiliyatiga etibor berib kelingan. Bu sog'lom o'quvchi uchun meyoriy hisoblansada, aholiha ajratilgan bolalar uchun o'quv jarayonini o'zlashtirishda to'siq vazifasini bajaradi. Inklyuzif sinflarda asosan bolaning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishga qaratish lozim bo'ladi. Yuqorida keltirib o'tamiz biz etibor berishimiz kerak bo'lgan eng asosiy muamoli jarayon deb hisoblayman, qo'shimcha qiladigan bo'lsak, o'quv maskanlarida va o'quv jarayonida muamolar esa asosan o'quvchilarni o'zlarini erkin hisqilishlariga salbiy tassir qiluvchi hisoblanadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidagi dolzar muamolardan biri bu inklyuzif ta'limni qanday qilib samarali olib borish desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, bu soha bizning ta'lim sohasiga tadbiiq etilganiga juda katta vaqt bo'lgani yo'q va biz bu sohada bir talay muamolarga duch kelamoqdamiz. Nafaqat mamlakatimizda, balki, butun dunyoda bu muamolarga yechimlar olimlar tomonida izlanmoqda. Bazi mamlakatlarda shu sababli bu ta'lim turi qoralanmoqda bunga sabab quyida keltirmoqchi bo'lgan muamolarimizdir.

Inklyuziv ta'lim muammolari.

1. Neyrotipik va neyroxil-xilma-xil o'quvchilarning ota-onalarining munosabati
2. Sinf xonalarini boshqarishdagi qiyinchiliklar
- 3 Baholashning yomon usullari
- 4 Madaniy va til to'siqlari
- 5 Xodimlar o'rtasida hamkorlikning yo'qligi
6. Nogironligi bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy emotsional kompetentligining rivojlanmaganligi. tengqurlarining munosabatlari.

7. Inklyuziv ta'lim uchun taqdim etilgan resurslar

Neyrotipik va neyroxilma-xil o'quvchilarning ota-onalarining munosabati:

Nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalaridan yordam olish juda muhimdir. Shunga qaramay ko'plab ota-onalar bolalarini maxsus maktablarda yetarlicha himoyalangan va ta'lim olish uchun qullay sharoitlar yetarli deb hisoblaydilar. Buning yana bir sababi ota-onalar bolalariga g'amhorlikni o'zlaridan muhassislar zimasiiga yuklashni afzal ko'radilar. Shunga qaramay bugungi kunda, juda ko'p ota-onalar bu narsaga juda etiborli yondosha boshladilar. Ammo, bu yetarli darajada amalga oshayotgani yo'q. buning bir yechimi mening fikrimcha ota-onalar uchun maxsus kurslar ochilishi va bu yerda ular bolalari uchun ko'rsatilishi kkerak bo'lga ko'maklarni o'rgatish kerakligi amaluy ravishda ko'rsatishlari kerak bo'ladi. Ularga nafaqat akademin bilim saviyasini oshirishni balki, ularning tibbiy bilim olishlariga ham komaklar zarur bo'ladi. Chunki, o'quvchilar maxsus maktablarda o'qitilganida ularga fizialogik davolar ham ko'rsatilgan bo'lib, bunday imkoniyatlar inklyuzif sinfga ega bo'lgam maktablarda bunday imkoniyatlar yetarli darajada emas. Ba'zi ota-onalar maxsus ta'lim maktablariga o'tganini xabar qilishgan, u yerda

mutaxassislar mos ravishda xizmat ko'rsatishi mumkin farzandlarining ehtiyojlariga javob beradi. Inklyuziv o'quv dasturi ota-onalarning kuchli ishtirokini talab qiladi. Ta'lim olish uchun birinchi turtki asosan ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi. Maktablar yoki inklyuziv ta'limga ega an'anaviy maktablar. Ota-onalar, umuman olganda, ijobiy yoki neytral munosabatda bo'ladilar.

Sinf xonalarini boshqarishdagi qiyinchiliklar

O'qituvchilar qobiliyat darajasi, diqqatni jamlash vaqti va xulq-atvor xususiyatlari jihatidan farq qiladigan o'quvchilari bo'lgan sinf xonalarini boshqarishda qiynaladilar. Shu sababli, ular sinf xonalarini boshqarish vazifalari bilan bir qatorda bir nechta dars rejalarini ham bajarishlari kerak.

Barcha o'quvchilarga teng ta'lim yordamini ko'rsatish ta'lim xodimlari uchun ustuvor vazifadir. O'qituvchi yordamchilari yoki hamkasblarining yordami yo'qligi bu vazifani bajarishni imkonsiz qiladi.

Bunday jarayondagi yechimlarda biri bu qo'qishcha yordamchi pedagog tayinlanishi o'sha o'sha o'quvchi sinfxonaga va dars jarayonini o'zlashtirgunga qadar. Yana boshqa bir yechim shuki, o'quvchilarni navbat bilan maxsus yordamga muhtoj o'quvchiga g'amxorlik qilishi, bunda, bolalar kelajak uchun tajriba ortiradilar va bir-birlariga g'amxorlik qilishni, yordam ko'rsatishni o'rganadilar. Ammo, bu o'quvchining bilim olishiga dars jarayonida fikrning bo'linishiga sabab ham bo'ladi. Bu muammoga yanda chuquroq yondashish va boshqa ijobiy yechim topilishiga umid qilamiz.

Baholashning yomon usullari

Standartlashtirish maqsadlari uchun mo'ljallangan baholash vositalari inklyuziv ta'lim muassasalari uchun qo'llab-quvvatlovchi amaliyotlarni o'z ichiga olmaydi.

O'qish qobiliyati zaif o'quvchilarga nima kerakligini tushunish uchun qo'shimcha vaqt, turli xil o'qitish formatlari va o'ziga xos yondashuvlar kerak.

Maktablarda shakllantirish baholash vositalari yo'qligi sababli, o'quvchilar o'zlarining ta'limdagi yutuqlari haqida noto'g'ri baho oladilar.

Davlat ta'lim qo'mitalari tomonidan inklyuziv sinfdagi alohida yordamga muhtoj o'quvchi uchun alohida baholash tizimi ishlab chiqilishi, nafaqat baholashga o'zgartirish kiritilishi, balki o'quv dasturiga o'qitilayotgan bilim asoslariga ham bosqichma-bosqich yengilik kiritilishi bu asosiy va muhim yondashuvlarda biri hisoblanadi. Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilar uchun o'quv dastur asosida soddaroq qilinishi zarur. Yoki bo'lmasam tengdoshlari bugungi mavzuni o'zlari tushuntirishi mumkin. Bilamizki, o'quvchilar uchun o'z tengdoshlarining tushuntirishi tushinarliroq tuyiladi. Bu jarayonda nafaqat alohida ajratilgan bolalarning bilim doirasi oshadi, balki tushuntirish davomida qolgan o'quvchilar uchun ham takrorlash bo'ladi.

Xodimlar o'rtasida hamkorlikning yo'qligi

Maktab xodimlari o'rtasidagi sust hamkorlik, turli xil o'qitish yondashuvlari bir-biriga mos kelmasa, o'quvchilar uchun teng bo'lmagan ta'lim sifatini keltirib chiqaradi.

Terapevtlar va yordamchi xodimlar bolalar inklyuziv ta'limda zarur bo'lgan yana bir qo'llab-quvvatlash ustunidir.

Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati ma'murlar, o'qituvchilar va maslahatchilar o'rtasidagi mustahkam hamkorlikka bog'liq. O'qituvchilarning moderatorlik roli o'quvchining qanday o'rganishi va o'sishida katta farqlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Nogironligi bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy emotsional kompetentligining rivojlanmaganligi. Va tengqurlarining munosabatlari.

Bilamizki, alohida ajratilgan o'quvchilar ko'p hollarda o'zlarining kamchiliklaridan uyaladilar va buning oqibatida ijtimoiylashuv jarayoni qiyin kichadi. Umum ta'lim maktablarda esa asosan o'quvchilarning akademik bilimlarini rivojlantirishga qaratiladi. Bu jarayonda o'quvchilar ham akademik bilim olish jarayonidan ham jismoniy jo'riqishga

uchraydilar ortirilgan stress va depressiyalar oqibatida. Qachonki, bola o'zini o'qush jarayonida qanchalik hotirjam va erkin his qilsa, shunchalik bilim olishga qiziqishi ortadadi. Tengqurlar ichida ham erkin fikr bildira olish, muloqotga kiritish osonlashadi.

Til to'siqlari tufayli ta'limni ijtimoiy jihatdan integratsiya qilish juda katta vazifaga aylanadi. Madaniy kompetensiyaning yo'qligi o'qituvchilarni o'quvchilarning talablarini bilmasdan o'tkazib yuborishga yoki noto'g'ri talqin qilishga olib keladi.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim muassasalari uchun sinf xonalarining xilma-xilligi bilan uyg'unlashganligi sababli qiyinchiliklarni saqlab qoladi. Maxsus ehtiyojli o'quvchilar o'qitish va xatti-harakatlarni boshqarishda tobora ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Zamonaviy ta'lim muhiti maxsus ta'lim ehtiyojlari (SEN) bo'lgan talabalarning turli ehtiyojlariga oid barcha talablarni qondirishi kerak. Bunday talabalarning shaxsiy o'zini anglashi va to'liq ijtimoiy hayoti ularga ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash, turmush sharoitlari hamda ta'lim sifati ko'rinishida yaratilgan sharoitlar bilan bevosita bog'liq. Ba'zi maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarda tengdoshlar, o'qituvchilar va boshqa odamlar bilan muloqot qilish, ijtimoiylashish va o'zaro ta'sirlashishda muammolar bo'lishi mumkin. Ushbu muammolar bunday o'quvchilarning xulq-atvoridagi qiyinchiliklar – giperaktivlik, agressiv xatti-harakatlar, stressga nomaqbul reaksiyalar va boshqalar – bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, maxsus ta'lim ehtiyojlari (SEN) bo'lgan talabalarga o'qish va kundalik hayotda moslashuvchan texnologiyalar, shaxsiylashtirilgan o'qitish va boshqalar kabi qo'shimcha yordam va ko'mak kerak bo'lishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim uchun taqdim etilgan resurslar

Kerakli resurslarning yetishmasligi inklyuziv ta'lim amaliyotini muvaffaqiyatli amalga oshirishga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ko'plab maktablarda, ayniqsa qishloq joylarda va yetarli mablag'ga ega bo'lmagan maktablarda zarur resurslarning yetarli darajada ta'minlanmaganligi kuzatilmoqda.

Inklyuziv ta'limni joriy etishda o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlari uchun o'quv yechimlarini yaratish uchun maxsus vositalar va mos texnologiyalarga muhtoj.

O'qituvchilarga Brayl yozuvidagi materiallar, nutqni matnga aylantirish dasturlari, harakatchanlik vositalari va vizual yordam kabi turli xil yordamchi vositalar kerak.

Xulosa. Inklyuziv nafaqat intellektida nuqsoni bor bolalarni jamiyatning ajralmas bir bo'lagi ekanligi ko'rsatadi, balki ular so'lom bolalar uchun Mehra-oqibat sharchashmasi hisoblanadi. Shu sababdan bugungi kunda bu soha chuqur o'rganilib tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Ammo bu sohada biz talaygina muammolarga duch kelmoqdamiz. Biz yuqorida qisman bo'lsa ham muamo yechimlariga yondoshdik va yechimlar berishga harakat qildik.

Adabiyotlar

1. Copyright © 2024, Scholarly Research Journal for Interdisciplinary STUDIES.
2. N.B. Golubeva, Modern science: topical problems of theory and practice. Series: Humanities, 3-2, 28-34 (2019)
3. V.P. Musina, Alma mater (Bulletin of the higher school), 6, 22-28 (2015)
4. S.V. Shcherbakov, Bulletin of the Omsk State Pedagogical University. Humanities Research, 3 (7), 129-131 (2015)
5. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim metodologiyasi.– Toshkent: Fan, 2010